



TURIZM SOHASIDA LOYIHALARNI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH: YANGI YONDASHUVLAR VA YANGI IMKONIYATLAR

Ahmadullayeva Mubinabonu Abdumannob qizi

*Andijon davlat universiteti Huquq-iqtisod fakulteti Turizm va mehmondo'stlik
yo'nalishi 201-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekistonda turizm sohasidagi loyihalarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalalarini o'rganadi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi yangi ish o'rinlari yaratish, valyuta tushumini ko'paytirish va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Biroq, turizm loyihalarini moliyalashtirishda bir qator muammolar mavjud, jumladan, yuqori foiz stavkalari, garov talablari va kreditlash jarayoning murakkabligi. Ushbu maqolada mavjud muammolar tahlil qilinadi va turizm loyihalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Xususan, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini joriy etish, garov talablarini yumshatish, kreditlash jarayonini soddalashtirish va turizm loyihalarini baholashning samarali usullarini ishlab chiqish taklif etiladi. Ushbu takliflar O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishiga va yangi investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *turizm, kreditlash, investitsiya, moliyalashtirish, loyiha, rivojlanish, iqtisodiyot, rentabellik, imtiyoz.*

Abstract: *This article examines issues related to improving the practice of lending for tourism projects in Uzbekistan. Tourism is one of the key sectors of the country's economy, and its development contributes to the creation of new jobs, an increase in foreign currency revenues, and the socio-economic development of regions. However, there are a number of problems in financing tourism projects, including high interest rates, collateral requirements, and the complexity of the lending process. This article analyzes the existing problems and develops proposals for improving the practice of lending to tourism projects. In particular, it proposes the introduction of preferential lending mechanisms, the easing of collateral requirements, the simplification of the lending process, and the development of effective methods for evaluating tourism projects. These proposals will contribute to the development of the tourism sector in Uzbekistan and help attract new investments.*

Keywords: *tourism, lending, investment, financing, project, development, economy, profitability, preferential.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с совершенствованием практики кредитования туристических проектов в Узбекистане. Туризм является одним из ключевых секторов экономики страны, и его развитие способствует созданию новых рабочих мест, увеличению валютных поступлений и социально-экономическому развитию регионов. Однако в сфере*



финансирования туристических проектов существует ряд проблем, включая высокие процентные ставки, требования к залоговому обеспечению и сложность процесса кредитования.

В статье анализируются существующие проблемы и разрабатываются предложения по совершенствованию практики кредитования туристических проектов. В частности, предлагается внедрение механизмов льготного кредитования, смягчение требований к залоговому обеспечению, упрощение процесса кредитования, а также разработка эффективных методов оценки туристических проектов. Данные предложения будут способствовать развитию туристического сектора Узбекистана и привлечению новых инвестиций.

Ключевые слова: туризм, кредитование, инвестиции, финансирование, проект, развитие, экономика, рентабельность, льготный.

Bugungi kunda butun dunyoda globallashuv va xalqaro raqobat jarayonlari kuchaymoqda. Ko'pgina mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham turizm sohasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va ushbu sohada davlat tomonidan tartibga solishning samarali mexanizmini yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, turizm O'zbekistonda ham iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratish, valyuta tushumini ko'paytirish va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. So'nggi yillarda mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga misol qilib," 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida Turizm sohasini rivojlantirish konsepsiya"si qabul qilinib, samarali ijrosi ustida qat'iy nazorat ta'minlanganligini olishingiz mumkin.⁴³Biroq, uni moliyalashtirish va kreditlash amaliyoti ustida sezilarli ishlar amalga oshirilmadi va haligacha qator muammolar mavjud. Turizmda kreditlash – bu sayohat qilish, dam olish, turistik xizmatlar yoki turizm bilan bog'liq boshqa xarajatlarni qoplash uchun moliyaviy yordam olish jarayonidir. Bu turistlar uchun qulaylik yaratish, ularning sayohat qilish imkoniyatlarini kengaytirish va turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy xizmat hisoblangani uchun ham undagi muammolarni hal qilish uchun turizmda kreditlash sohasida tegishli regulyatsiyalarni ishlab chiqish, turistlar va turistik korxonalarni axborot bilan ta'minlash va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish zarur.

⁴³ Matkabulova Dilorom Xalilullayevna "Turizm sohasidagi loyihalarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish", 29-bet.

Tahlillar va natijalar

Yuqori foiz stavkalari

Turizm loyihalarini moliyalashtirish uchun foiz stavkalari boshqa sohalarga qaraganda yuqori. Masalan,

BANKLAR	FOIZ STAVKALARI
Biznesni rivojlantirish banki ⁴⁴	Yillik 27%dan 28,5%gacha
Ipoteka bank ⁴⁵	Yillik 25,99%
Agro bank ⁴⁶	Yillik 25%
Hamkor bank ⁴⁷	Yillik 32%dan 40%
TBC bank ⁴⁸	Yillik 28%dan 49%

Bu esa loyihalarning rentabelligini pasaytiradi va investitsiyalarni jalb qilishni qiyinlashtiradi. Faraz qilaylik, yosh tadbirkorsiz va o'zingiz o'sgan qishlog'ingizda ekoturizm yo'nalishidagi kichik mehmon uylari qurishni rejalashtirgansiz. Sizning g'oyangiz qishloqning go'zal tabiati va mahalliy an'analarini sayyohlarga ko'rsatishdan iborat. Siz ushbu loyihani amalga oshirish uchun bankdan kredit olishga qaror qildingiz. Biroq, bankka murojaat qilganingizda, unga taklif qilingan kreditning foiz stavkalari juda yuqori ekanligini bildingiz. Bank turizm sohasidagi loyihalarni xatarli ekanligini va qishloq joylarida infratuzilmaning yetarli emasligini sabab qilib ko'rsatdi. Natijada, sizning kredit bo'yicha to'lashingiz kerak bo'gan oylik to'lovlar dastlabki biznes rejada ko'zda tutilgandan ancha yuqori bo'lib chiqadi. Bu muammo boshlayotgan biznesingizga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Xarajatlaringiz oshib ketadi, foyda marjasi esa kamayadi. Natijada, siz mehmon uyi qurilishini kechiktirishga yoki loyihaning hajmini qisqartirishga majbur bo'lasiz. Bu esa biznesingiz rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va qishloqning turizm salohiyatida to'liq foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Ushbu misol, yuqori foiz stavkalari turizm sohasidagi kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga qanday to'siq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu muammoning yechimi sifatida, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ya'ni, hukumat turizm sohasidagi kreditlar bo'yicha foiz stavklarini qisman qoplash uchun subsidiyalar ajratishini olishi mumkin va buni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish to'g'risida"gi PQ-39-son qarori⁴⁹da ko'rinishingiz mumkin. Bu ayniqsa, turizm sohasidagi kichik va o'rta biznes uchun muhimdir. Bundan tashqari, hukumat kredit beruvchilarga kredit kafolatlarini taqdim etishi mumkin, bu esa risklarni kamaytiradi va foiz stavkalarini pasaytiradi.

⁴⁴ <https://brb.uz>

⁴⁵ <https://www.ipotekabank.uz>

⁴⁶ <https://agrobank.uz>

⁴⁷ <https://hamkorbank.uz>

⁴⁸ <https://tbcbank.uz>

⁴⁹ <https://www.lex.uz>



Garov talablari

Banklar turizm loyihalarini kreditlashda yuqori garov talablarini qo'yadilar. Ko'pgina tadbirkorlar bunday talablarni bajara olmaydilar. Bu esa kredit olish imkoniyatini cheklaydi. Masalan, yana o'sha kichik bir oilaviy mehmon uyi tashkil qilishni oladigan bo'lsak. Siz mehmon uylarni tashkil qilib, o'z qishlog'ingizda biznesingizni boshladingiz va endi siz mehmon uyini kengaytirishni va zamonaviylashtirishni xohlayapsiz. Siz mahalliy bankka kredit olish uchun murojaat qilasiz, ammo bank kreditni berish uchun garov sifatida qimmatbaho mulk talab qiladi. Sizning asosiy aktivingiz o'sha mehmon uylari, lekin uning qiymati kredit miqdorini qoplash uchun yetarli emas. Sizda boshqa qimmatbaho mulk yo'q va siz kredit olish imkoniyatidan mahrum bo'lasiz. Bunga biz yechim sifatida, kafolat fondlari tashkil qilishni olishimiz mumkin. Ya'ni qanday? Hukumat turizm korxonalari uchun kreditlar bo'yicha kafolatlar beradigan kafolat fondlarini tashkil qilishi yoki kengaytirishi mumkin. Bu kredit beruvchilar uchun xavfni kamaytiradi va garov talablarini yumshatish imkoni beradi. Shuningdek, garov talablarini pasaytirish uchun turizm biznesi tomonidan ko'riladigan choralar ham muhim. Bulardan biri, biznes – rejalarni batafsil tuzishdir. Turizm biznesi loyihaaning potentsiali va kreditni qaytarish qobiliyatini ko'rsatadigan batafsil va asosli biznes – rejalarni kredit beruvchilarga taqdim etishi muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi orqali turizm sohasidagi kichik va o'rta biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar berilishi mumkin. Bu jamg'arma garov ta'minoti yetishmayotgan bizneslarga kafolat berishi yoki kredit stavkalarini subsidiyalashi mumkin. Bundan tashqari, jamg'arma turizm sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun grantlar ham taqdim etishi mumkin.

Kreditlash jarayonining murakkabligi



Turizm loyihalarini kreditlash jarayoni ko'p vaqt va murakkab hujjatlarni yig'ishni talab qiladi. Bu esa tadbirkorlar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Bu muammoning yechimi sifatida, turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va avtomatlashtirishni olishingiz mumkin. Kredit arizalarini topshirish, zarur hujjatlarni yig'ish va ariza holatini kuzatish uchun onlayn platformalarni joriy etish, bu jarayonni sezilarli darajada soddalashtiradi va tezlashtiradi. Shuningdek, kreditlash tizimida soddalashtirish uchun sun'iy intellektdan foydalanish ham ancha ahamiyatlidir. Qarz oluvchilarning kredit qobiliyatini tahlil qilish va xavflarni baholash uchun sun'iy intellektdan foydalanish kredit arizalari bo'yicha qarorlar qabul qilishni tezlashtiradi. Masalan, Andijondagi kichik mehmonxona egasi yangi filial ochish uchun kredit olishga qaror qildi. Bank unga biznes-reja, moliyaviy hisobotlar, yer hujjatlari, qurilish smetasi va boshqa ko'plab hujjatlarni taqdim etishini talab qildi. Bu hujjatlarni yig'ish va tayyorlash bir necha hafta vaqtni oldi. Lekin agar bank onlayn platforma orqali hujjatlarni qabul qilsa, tadbirkor platformaga skanerlangan hujjatlarni yuklab, ariza holatini onlayn kuzatib boradi. Bu jarayonni sezilarli darajada soddalashtiradi va tezlashtiradi. Hozirda O'zbekistonda o'z faoliyatini olib



boruvchi barcha banklar o'z platformalariga ega va kredit olishning qulay usulini ishlab chiqqan.

Turizm loyihalarini baholashning samarali usullarining yo'qligi

Banklar turizm loyihalarining rentabelligini baholashda samarali usullardan foydalanmaydilar. Bu esa, loyihalarining moliyaviy barqarorligini baholashni qiyinlashtiradi. Lekin kompleks yondashuvlarni topib, ixtisoslashtirilgan metodikalarni ishlab chiqsak, ayni muddao bo'ladi. Bunda turizmning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Mavsumiylik, tashqi omillarga bog'liqlik, trendlar va voqealarning ta'siri kabi turizm biznesining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan metodikalarni ishlab chiqish orqali maqsadga erishish alohida ahamiyat kasb etadi. Tasavvur qiling, Toshkentda yangi ekoturizm majmuasini qurish loyihasi ishlab chiqilmoqda. Loyiha mualliflari loyihaning ekologik tozaligi, mahalliy aholiga foydasi va sayyohlar uchun qiziqarli bo'lishini ta'kidlamogda. Biroq, loyihaning moliyaviy rentabelligini baholashda bir qator muammolar yuzaga keladi. Bular:

1. Mavsumiylik: Turizm majmuasining daromadi yilning qaysi vaqtida sayyohlar oqimiga bog'liq bo'ladi. Mavsumiy tebranishlarni hisobga olgan holda loyihaning moliyaviy barqarorligini baholash qiyin.

2. Tashqi omillar: Loyiha tashqi omillarga, masalan, siyosiy vaziyat, iqtisodiy inqirozlar yoki tabiiy ofatlarga juda sezgir. Ushbu omillarning loyiha rentabelligiga ta'sirini aniq baholash qiyin.

3. Trendlar va voqealar: Turizm sohasida trendlar tez-tez o'zgarib turadi. Yangi sayyohlik yo'nalishlari, texnologiyalar yoki voqealar loyihaning muvaffaqiyatiga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu o'zgarishlarni oldindan bashorat qilish qiyin.

Ushbu muammolar tufayli banklar va investorlar loyihaning moliyaviy rentabelligini aniq baholay olmaydilar. Bu esa loyihani moliyalashtirishni qiyinlashtiradi va uning amalga oshirilishini kechiktiradi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun turizm loyihalarini baholash uchun maxsus metodikalar ishlab chiqish lozim. Ushbu metodikalar turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, mavsumiylik, tashqi omillar, trendlar va maxsus ko'rsatkichlarni hisobga olishi kerak. Bundan tashqari, turizm sohasidagi ekspertlarni jalb qilish va kreditlash jarayonini raqamlashtirish ham loyihalarni baholash samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Turizm sohasida loyihalarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish turizmning barqaror rivojlanishiga va mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga katta hissa qo'shishi mumkin. Yuqoridagi takliflar amalga oshirilsa, turizm loyihalarini moliyalashtirish va yangi imkoniyatlarni qo'llash orqali biz turizm tadbirkorlari uchun qulay moliyaviy muhit yaratishimiz va investitsiyalarni jalb qilishimiz mumkin. Shuningdek, kreditlash amaliyotini takomillashtirish orqali biz turizm sohasida yangi ish o'rinlari yaratishimiz, mahalliy aholining iqtisodiy farovonligini oshirishimiz va mamlakatimizning turistik salohiyatini

